
Buvayda tumanidagi “Motamsaro ona” haykali poyiga gulchambarlar qo’yildi.

Bugun 9-may - "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan Poshshopirim mahalla fuqarolar yig‘inidagi xotira maydonida ikkinchi jahon urushida qurbon bo‘lgan yurtdoshlarimiz va o‘tganlar xotirasini yod etilib, Motamsaro ona haykali poyiga gul qo’yildi.

Unda Buvayda tumani hokimi Behzodjon Ibragimov boshchiligidagi sektor rahbarlari, mehnat faxriylari, harbiy xizmatchilar, yoshlar va jamoatchilik vakillari qatnashdilar.

Tadbir so‘nggida mehnat faxriylariga ehtirom ko‘rsatildi.

2024-05-09 21:00:53